



2019-yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar



2019-yilda asosiy kapitalga kiritilgan 12187,0 mlrd. so'mlik investitsiyalar yo'naltirildi, shundan 76,6 % jalb qilingan mablag'lar, 23,4 % korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan ta'minlandi.






NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi quyidagicha taqsimlandi – hukumat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar– 22,8 % ni, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar–20,6 % ni, aholi mablag'lari–11,3 % ni, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari–11,7 %, korxonalar mablag'lari, mahalliy byudjet va homiy rezident mablag'lari–24,8 % ni, respublika byudjeti–4,7 % ni, suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish– 0,7 % ni, tiklanish taraqqiyot jamg'armasi–3,3 % ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (umumiy hajmdagi ulushi, %)





NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari

| | Mrd. so'm | O'sish sur'ati, % | Umumiy hajmga nisbatan % da |
|----------------------------------------------------------------------|----------------|-------------------|-----------------------------|
| Barcha moliyalashtirish manbalari | 12187,0 | 132,0 | 100,0 |
| Respublika byudjeti | 574,6 | 81,9 | 4,7 |
| Tiklanish va taraqqiyot | 397,2 | 31,7 | 3,3 |
| Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi | 80,6 | 124,3 | 0,7 |
| O'zbekiston Respublikasi kafolati bilan chet el kreditlari | 2785,0 | 102,2 | 22,8 |
| Korxonalar mablag'i, mahalliy byudjet va homiy rezident mablag'lari: | 3022,2 | 189,4 | 24,8 |
| Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari | 1427,1 | 97,9 | 11,7 |
| To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar hamda kreditlar | 2528,7 | 673,6 | 20,7 |
| Aholi mablag'lari | 1371,6 | 122,6 | 11,3 |






Asosiy kapitalga investitsiyalar tumanlar kesimida mlrd.so'mda






NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yuqori o'sish sur'atlari Yangiyo'rg'on tumanida kuzatildi, ularning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 martaga oshganligini ko'rishimiz mumkin.




Hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Umumiy hajmdagi ulushi, %



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning rivojlanishi To'raqo'rg'on tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 31,6 % o'zlashtirildi, keying o'rinda Namangan shahrining ulushi 22,8 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibiga ko'ra qurilish-montaj ishlari 4130,1 mlrd. so'mga yetkazildi, asbob-uskunalar va jihozlar 7521,9 mlrd. so'mga, boshqa kapital ishlar va xarajatlar esa 535,0 mlrd. so'mga yetdi.





NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


Asosiy vositalarga investitsiyalarning qurilish montaj ishlari mlrd. so'mda





Asosiy kapitaldagi investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga kiritilgan investitsiyalar hajmi 7565,5 mlrd. so'mni tashkil etdi, bu jami investitsiyalarning 62,1 % ni tashkil etdi.

Mavjud obyektlarni rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirishni kengaytirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 3484,7 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmining 28,6% ni tashkil etdi. Qolgan 9,3 % yoki 1136,8 mlrd. so'm boshqa sohalarga yo'naltirildi.






NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida noishlab chiqarish sohasi yetakchilik qilmoqda. Ushbu sohada barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 2824,9 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 23,2 % o'zlashtirildi. Uy-joy qurilishi umumiy qiymati 1458,6 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmning 12,0 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalga Investitsiyalar % da





NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Asosiy kapitalga kiritilgan to'gridan-to'g'ri chet-el investitsiyalari va kreditlari

| Shahar va tumanlar | 2018-yil mlrd. so'mda | 2019-yil yanvar-dekabr oylarida mlrd. so'mda | 2018-yilga nisbatan % da |
|--------------------------|--------------------------|-------------------------------------------------------|-----------------------------|
| Namangan viloyati | 318,3 | 1825,5 | 5,4 m. |
| Namangan sh. | 121,0 | 285,7 | 2 m. |
| tumanlar: | | | |
| Mingbuloq | 160,3 | 12,2 | 6,7. |
| Kosonsoy | - | 73,2 | |
| Namanagan | 1,3 | 194,7 | 130 m. |
| Norin | - | 121,5 | |
| Pop | 16,3 | 248,4 | 13 m. |
| To'raqo'rg'on | 6,9 | 194 | 24 m. |
| Uychi | 5,6 | 136,7 | 21 m. |
| Uchqo'rg'on | - | 69,4 | |
| Chortoq | 6,3 | 44,8 | 6 m. |
| Chust | 0,6 | 254,2 | 372 m. |
| Yangiqo'rg'on | - | 190,7 | |




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Qurilish obyektlari




Uy-joy qurilishi ming kv.m





NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

2019-yil yanvar-dekabr oylarida umumiy maydoni 1300,8 ming kv.m bo'lgan 10094 ta uy-joy qurilishi amalga oshirildi, shu jumladan, qishloq joylarda 858,7 ming kv.m bo'lgan 6509 ta uy-joy qurib bitkazildi.



**Namangan viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

Mas'ul: **B. Tursinov**

Telefon: **(71) 230-84-85**